



## O'ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBASI BO'LGAN NEOLOGIZMLAR VA UNING TURLARI

Xudoynazarova Nasibaxon

Qo'qon davlat universiteti filologiya fakulteti  
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15348060>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2025 yil

Ma'qullandi: 04-May 2025 yil

Nashr qilindi: 06-May 2025 yil

### KEYWORDS

Leksikologiya,leksika,leksema,  
o'zlashma so'zlar,  
neologizmlar,terminlar, lug'at,  
individual neologizm, shaklning  
neologizmlari, semantik  
neologizmlar, funktsional  
neologizmlar, ijtimoiy  
neologizmlar, texnologik  
neologizmlar, stilistik  
neologizmlar

### ABSTRACT

*Mazkur maqoladan ko'zlangan maqsad o'zbek tili leksikasining boyish manbasi bo'lgan neologizmlar va uning turlari haqida gap boradi. Bir qancha tilshunosh olimlarimiz tomonidan leksikologiyani tadbqiq etish borasida bir qancha vazifalar belgilangan bo'lib, keying vazifa o'zbek tilining sistemaviy lug'atini tuzish etib belgilandi. Maqolada o'rganish obykti etib o'zbek tili leksikasidagi o'zlashma so'zlar- neologizmlar olindi. Materiallar ,asosan ,eski va yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan hamda bir qancha lug'atlardan to'plandi. Ishga nazariy manba sifatida tilshunosligimizda bajarilgan monografiya va ilmiy maqolalardan foydalanildi.*

Asrlar davomida tillar bir-biridan so'z olib, so'z berib shakllanib kelmoqda. Bu ham bir imkoniyat. Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o'rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta'sirini belgilaydi - jamiyatda bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy-ma'rifiy sohalardagi islohatlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi so'z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma'lum so'z- leksemaning eskirib tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug'at boyligida istorizm, arxaizm va o'zlashma neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.<sup>1</sup>

Fan hamisha rivojlanishda va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko'rilmagan darajada jadal tus oldi. Agarda hozirgi zaminga nazar soladigan bo'lsak, bizni o'rab turgan kurrai zamin zamonaviy texnologiyalar qurshovida ekanligini guvohi bo'lamiz. Texnologiya tobora rivojlangani sari nutqimizda yangi so'zlar ham ko'payib bormoqda. Neologizmlarning yaralishi va tarqalishi asosan fan-texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq. Ayni damda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so'zlarning biridan boshqasiga o'tishi jadallashmoqda. Hozirgi kunda nafaqat fan-texnika, balki ilmiy, rasmiy, publitsistik, so'zlashuv uslublarida va barcha sohalarda, shuningdek iqtisodiy sohada ham bir qancha neologizmlarni

uchratmoqdamiz. Bu jarayon ha bevosita o'zbek tiliga ta'sir qilmoqda va o'zbek tili leksikasi o'zlashma so'zlar-neologizmlar hisobiga boyishiga xizmat qilmoqda. S.I. Ojegovning e'tirof etishicha, leksika tilning boshqa sathlariga qaraganda murakkab va ko'p qirralidir. Uning vazifasi, bir tomondan, jamiyat nafas olayotgan borliqni barcha murakkabliklari bilan in'ikos etish bo'lsa, ikkinchi tomondan, leksik, semantik, uslubiy-sinonimik so'z yasash va shuning kabi bir qator hodisalarning murakkab lisoniy munosabatlarini ifoda etishdan iboratdir. Bir tildan boshqa tilga so'z o'zlashishi tillarning aralashuvi sifatida yuqori baholanadi. Mashhur tilshunos L.V. Shcherba bunday jarayonni tilshunoslikning muhim muammolari sirasiga kiritadi.<sup>2</sup>

### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

**Neologizm** ( qadimgi yunon tilidan - néo- , "yangi" va lógos , "so'z, nutq") nisbatan yangi va kam qo'llanadigan atama, so'z yoki ibora bo'lib, umumiy foydalanish jarayonida bo'lishi mumkin, lekin hali ham mavjud emas. to'liq qabul qilingan. umumiy tilga. Neologizm ko'pincha madaniy va texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq. Tilning shakllanish jarayonida neologizmlar protologizmlarga qaraganda ancha etukroqdir. Rivojlanish bosqichi protologiya (yangi yaratilgan) va neologizm (yangi so'z) o'rtasida bo'lgan so'z prelogizm deyiladi. Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar tilshunoslikda *neologizmlar* (yunoncha *neos* – yangi) deb ataladi. Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi.<sup>3</sup> Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shunda-gina umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumtil neologizmi tilda ma'lum vaqt ishlatilganidan keyin yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va ko'pincha odatdagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi, vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, o'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, qayta qurseziladministratsiya, reyting, biznes so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoqda. Tildagi umumiy neologizmlar bilan bir qatorda individual uslubiy yoki okkazional neologizmlar ham mavjud. Bunday neologizmlar mualliflar tomonidan ma'lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi. Har bir neologizmlarning o'ziga xos ikkita xususiyati mavjud. Bular: 1) Yangi so'zni dastlab ular paydo bo'lgan hududni o'rganayotgan odamlarning ma'lum bir doirasi tushunadi 2) Neologizmlar qisqa vaqt ichida yangi bo'lishi mumkin. Keyin ular hamma uchun tanish bo'ladi.

Neologizmlarning turlari mavjud bo'lib: 1) Shaklning neologizmlari. Ushbu turdagi neologizm so'zlarning yoki tilda mavjud bo'lgan so'zlarning morfologik o'zgarishidan kelib chiqadi. Misol: fotojurnalistika, ijtimoiy nasroniy, liberal demokrat yoki popemobil. 2) Semantik neologizmlar. Bunday holda, u allaqachon tilning bir qismibo'lsa-da, boshqa sohalarning elementlari yoki jihatlarini belgilash uchun boshqa ma'no yoki ma'noda bir xil tilda olingan so'zlarni nazarda tutadi. Misol: qidiruv tizimi, virusli, parket yoki

virus.3)Funksional neologizmlar. Neologizmlarning bu tasnifi tilga so'zlarni qo'shish zarurati bilan bog'liq, chunki ma'lum bir ob'ekt yoki vaziyatni belgilashning boshqa usuli yo'q. Chet el so'zlari ushbu tasnifga kiradi. Umuman olganda, ushbu turdagi atamalar aloqa yanada dinamik bo'lishiga imkon beradi. Misol: kilo, jirafa, turtul yoki yong'inga qarshi.4)Ijtimoiy neologizmlar. Ushbu so'zlar jamiyatga, insonning axloqiy va madaniy harakatlariga bog'liq ba'zi jihatlarni tavsiflovchi yoki belgilaydigan barcha so'zlar bilan bog'liq. Misol: qo'mita, ish tashlash, yig'ilish yoki jamoaviy bitim. 5) Texnologik neologizmlar. Ushbu turdagi neologizm ba'zi so'zlar texnologiya va fan sohalarida yuzaga keladigan burilishlar bilan bog'liq. Ular deyarli har doim boshqa tillardan keladi, masalan, ispancha ingliz tilidan. Ushbu tasnif bugungi kunda eng ko'p ishlatiladiganlardan biridir. Misol: skaner, server, selfi yoki kibermakon. 6) Stilistik neologizmlar. Stilistik neologizmlar - bu odatda ishlatiladigan so'zlarga nisbatan ifoda yoki atamaga nisbatan sezgir va ijobiy ohang berish uchun qo'llaniladigan so'zlar. Aks holda, ular narsalar idrokini o'zgartirish uchun mo'ljallangan so'zlardir. Misol: marhum, qorong'i, ko'r yoki konsert.<sup>4</sup>

### Muhokama va natijalar

O'zlashma neologizmlar davriy xususiyatga ega sanaladi. Masalan, bir paytlari yangi atamalar sifatida tilga kirib kelgan avtobus, trolleybus, metro kabi so'zlar bugungi kunda yangilik bo'yog'ini yo'qotib, zamonaviyqatlamga oid leksik birliklarga aylangan. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar barcha sohalarida bo'lganisingarutilshunoslik sohasida ham tub o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, bu holat o'zbek tili leksikasida kuchli bo'ldi.<sup>5</sup> O'zlashma so'zlarning aksariyati bu tarjima qilingan so'zlardir. Bunday so'zlarning ikki asosiy turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

**Semantik**, ya'ni ma'no jihatdan tarjima qilingan so'zlardir. Chet tilidan kirib kelgan so'zning ma'nosi va shakli jihatdan o'zbek tiliga tog'ri kelishi va qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Masalan *confort* (uy xizmatlari) ingliz tilida *comforts* kabi ifodalanadi. Yoki o'zbek tilidagi *autoritar* so'zi bir necha yil oldin "*rendere autorevole*", ya'ni 'mustaqil ishlamoq' ma'nosini anglatadi.

**To'g'ridan-to'g'ri tarjima** - kalka usulida o'zbek tiliga chet tilidan tarjima qilingan so'zlar guruhi: ingliz tilidagi *sky-scraper*; nemis tilidagi *klassen kampf*.

O'zlashma so'zlar tillar orasidagi bog'liqlikni namoyon etuvchi muhim jarayondir. Neologizmlarning ikki tillilik (bilinguizm) bilan munosabati, so'zlovchilar tomonidan holat va joyga qarab ikki tildan foydalanish davomida ko'rinadi. O'zlashma so'zlarning kelib chiqishi xalq tili yoki boshqa tillarning ta'sirida ham yaqqol ko'rinadi, bundan tashqari ikki tilning bir-birini qadrlashida ham namoyon bo'ladi. Bunday holat nemis va roman tillarida kuzatiladi. O'zlashma so'zlarni muhimlik va boyluk tomonidan farqlashimiz mumkin. Birinchidan so'z qachonki referent (ya'ni obyekt va g'oya, fikr) bilan birga bo'l'sa, masalan patata gaytan so'zi bo'l'ib italyan tiliga ispan tili orqali kirib kelgan yoki *caffè* so'zi turk tilidan, zero arab tilidan (roman sonlarida zero, ya'ni nol mavjud bo'lmagan) tram, transistor, juke-box kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan.

Leksemaning yangi bo'lishi boshqa-yu, yangilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Har qanday yangi leksema neologizm bo'lavermaydi. Masalan, *kompyuter-*, *ksereks-*, *birja-* kabilar

– o‘zbek tiliga yaqin vaqtlarda kirib kelgan leksemalar, lekin bu leksemalarni neologizm deb bo‘lmaydi, chunki bu leksemalar hozirgi o‘zbek tilida yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotib, odatdagi leksemaga aylangan. <sup>6</sup>

Demak, neologizm – o‘ta nisbiy tushuncha. Avvalo, til taraqqiyotining har bir bosqichi o‘z neologizmiga ega bo‘ladi, bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham neologizm bo‘lishi shart emas. Masalan, 30- yillar nuqtayi nazaridan *shpal-*, *seyalka-* kabi leksemalar neologizm deb baholansa, hozirgi o‘zbek tilida bular odatdagi, zamonaviy leksemaga aylangan; 20- yillar nuqtayi nazaridan neologizm deb qaralgan *aeroplan-*, *yo‘qsil-* (proletariy) kabi leksemalar esa arxaizmga aylangan.

Ikkinchidan, neologizmni belgilashda shu hodisaning tilda (individual neologizmning esa nutqda) qancha vaqt mavjudligi ham ahamiyatsiz. Leksema juda qisqa vaqt ichida neologizmlikdan chiqib ketishi ham, uzoq vaqt neologizmligicha qolib ketishi ham mumkin. Umumtil neologizmi odatdagi, zamonaviy leksemaga tez aylanadi; individual nutq neologizmi esa, qancha vaqt o‘tmasin, o‘z yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotmasligi, umuman neologizmligicha qolib ketishi mumkin. Masalan, *tuzum-* leksemasi 20--30- yillarda neologizm edi, hozir odatdagi leksemaga aylangan; G‘afur G‘ulomning ilk poeziyasida uchraydigan *mozollan-* (*mozollangan qo‘llar* - «Olqish», «Tagdo‘zi»), *fashistlan-* (*fashistlanaroq* - «To‘qinish»), *qo‘ng‘irla-* (*Qo‘zichoqning barrasiday mayda qo‘ng‘irlab* - «Non») kabilar o‘zi ishlatilgan asar doirasida individual nutq neologizmligicha qolib ketgan.

Tilshunoslikda yangi so‘z yasashining o‘rni haqida V.V.Vinogradov tomonidan aytilgan fikr ibratlidir. Unga ko‘ra, atama yasashi tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etar ekan, u leksikologiya - tilning lug‘at tarkibi haqidagi fan bilan, o‘z o‘rnida grammatika bilan yaqinlashar ekan - shakl yasash ta‘limoti hamda so‘z birikmasi sintaksisi bilan ham bo‘g‘liqdir. Bunday nuqtai nazarni qo‘llab-quvvlovchilar soni kun sayin ortib bormoqda.

O‘zbek tiliga chet tillaridan o‘zlashgan yangi so‘zlar hozircha mamlakatimizda maxsus tadqiq etilganicha yo‘q. O.Jumaniyozovning “O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari” nomli monografiyasida (1987) ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar miqdori 150 ta deb ko‘rsatiladi. Agar bu kitobning yaratilganiga qariyb yigirma yil bo‘lganini, mustaqillikdan keyin mamlakatimizning xalqaro nufuzi yanada ortganini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘zbek tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar miqdori uch yuzdan ko‘proq, deb taxmin qilish mumkin. Chunki biz prof. N.G.Komlevning lug‘ati (2)ga tayangan holda tilimizga o‘zlashayotgan inglizcha so‘zlarni oddiy hisob-kitob qilganimizda bu miqdor hozircha uch yuzga yaqinlashib qoldi.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, dunyoda boshqa tillardan so‘z olmasdan faqat o‘z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo‘q. Bundan o‘zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma‘lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o‘z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo‘lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bugungi kundagi neologizmlarning tilimiz leksikonida vaqtlar o‘tib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilimizni sofligicha saqlash uchun chet el leksikonidagi so‘zlarning ishlatilishini cheklash lozim

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. –T.:2000

2. Xojayev A, Nurmonov A, Zaynobitdinov S. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. T.: "Universitet". 2006
4. Suvonova R. So'z o'zlashtirish va metonimiya. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. Toshkent. 2006/6
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2010
6. Ozodov Sunnatilloning "Hozirgi o'zbek tili neologizmlari" yozilgan bitiruv malakaviy ishi
7. H. Dadaboyev. O'zbek terminalogiyasi. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2019.
8. <https://uz.delachieve.com/qanday-neologizm-bolib-u-tilda-paydo-boladi-deb/>
9. Suvonova R. So'z o'zlashtirish va metonimiya. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. Toshkent. 2006/6. 48-bet.

